

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UMAROV ZAFAR ABSAMATOVICH

TIJORAT BANKLARI KREDITLASHTIRISH OPERATSIYALARINING
BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITI METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 - «Moliya, pul muomalasi va kredit»
08.00.08 - «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Umarov Zafar Absamatovich

Tijorat banklari kreditlashtirish operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish 3

Умаров Зафар Абсаматович

Совершенствование методологии бухгалтерского учета и внутреннего аудита операций кредитования коммерческих банков 39

Umarov Zafar Absamatovich

Improving the methodology of accounting and internal audit of lending operations in commercial banks 75

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 80

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UMAROV ZAFAR ABSAMATOVICH

TIJORAT BANKLARI KREDITLASHTIRISH OPERATSIYALARINING
BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITI METODOLOGIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH

08.00.07 - «Moliya, pul muomalasi va kredit»
08.00.08 - «Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit»

Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025-yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.DSc/Iqt193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tseu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasmiy opponentlar:

Jumayev Nodir Xosiyatovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Axmedjanov Karimjon Bakidjanovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Abdugapur Karimovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.I.17.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «24» 10 kuni soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: +99871 239-28-72, e-mail: info@tseu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1978 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: +99871 239-28-72, e-mail: info@tseu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «08» 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil «08» 10 kuni 86 raqamli reestr bayonnomasi).



T.Z. Teshabayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

J.X. Ataniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.N. Qo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi o‘n yillikda xalqaro moliyaviy munosabatlar tizimida kreditlashtirish amaliyotining roli keskin ortgani kuzatilmoqda. Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF), Evropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) hamda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) kabi xalqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlar o‘z hisobotlarida qayd etganidek, kreditlash tizimi iqtisodiy o‘shishni jadallashtirish, kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qarz munosabatlarida yuzaga keladigan kredit risklarni o‘z vaqtida to‘g‘ri baholamaslik riskni keng tarqalib, nafaqat bir tijorat bankida, balki mamlakat bank tizimida va mamlakat o‘zida, o‘z navbatida butun dunyoda inqirozli hodisalarga olib kelishi mumkin. Bu nafaqat davlat darajasida, balki xalqaro miqyosda ham kredit riskini tartibga soluvchi organlarning paydo bo‘lishi zarurligini tushuntiradi. Xususan, Bazel qo‘mitasi, Jahon banki, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) bo‘yicha qo‘mita hamda Xalqaro ichki auditorlar instituti singari nufuzli moliya tashkilotlari kreditlash operatsiyalarini amalga oshirish, ularni buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda to‘g‘ri aks ettirish, shuningdek ichki audit tekshiruvlarini samarali tashkil etish borasida muntazam ravishda metodik tavsiyalar va ko‘rsatmalar ishlab chiqib kelmoqda. «2023-yil yakuniga ko‘ra, global qarz miqdori 250 trln. AQSh dollariga etdi. Bu ko‘rsatkich jahon YaIMga nisbatan hisoblaganda taxminan 237 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 1 foiz punktga pasaygani kuzatildi»¹. Ushbu holat kredit qarzдорligini shaffof hisobga olish hamda nazorat jarayonlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahon xo‘jaligining tezkor o‘shishi, bozor munosabatlarining chuqurlashuvi hamda iqtisodiy aloqalarning global miqyosda kengayib borishi sharoitida kreditlash tizimi milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi, turli moliyaviy institutlar, transmilliy korporatsiyalar va davlatlararo moliyaviy munosabatlar tizimi orqali xalqaro kreditlashtirish, kreditlashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni aniqlash, boshqarish, ularni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish, ushbu amaliyotlarning to‘g‘ri bajarilishini nazorat qilish va tekshirishni takomillashtirishga doir keng ko‘lamda ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kredit operatsiyalarining mohiyati, turlari va ularning buxgalteriya hisobida aniq va shaffof aks ettirilishini talab etadi. Ushbu tadqiqotlarda xalqaro amaliyotda qo‘llanilayotgan kredit turlari - tijorat krediti, bank krediti, moliyaviy ijara (lizing), forfeyting va faktoring kabi instrumentlar iqtisodiy faollikga ta‘siri, kreditlashtirishning zamonaviy tendentsiyalari buxgalteriya hisobi tizimi oldiga qo‘yilayotgan yangi talablar, kredit riski mavjud aktivlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablari asosida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda to‘g‘ri aks ettirilishi, risklarni boshqarish, daromadlarni tan olish, muammoli kreditlarni kamaytirish kabi muhim masalalarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

¹ International Monetary Fund 2024 Global Debt Monitor, December 2024
<https://www.imf.org/external/datamapper/GDD/2024%20Global%20Debt%20Monitor.pdf>

Mamlakatimiz bank tizimini isloh qilish strategiyasida «kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlashtirish hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik echimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash»² asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilanganligi banklarda kreditlashtirishni samarali tashkil qilish, kredit riskini boshqarish, kreditlashtirish jarayoni ichki audit tekshiruvlarini jahon tajribasini o'rganish asosida uni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi. Bank tizimi, buxgalteriya hisobi va audit sohasida olib borilayotgan islohotlarning amalga oshirilishi kreditlashtirish jarayonida yangi bank mahsulotlarining taklif qilinishi, bank risklarining ta'siri oshib borishi, sohaga oid xalqaro standartlardagi o'zgarishlar, biznes yuritish qoidalarining o'zgarishi buxgalteriya hisobi va audit uchun o'ziga xos chaqiriqlarni keltirib chiqarayapti. 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida «Bank va moliya tizimida yillik kreditlashtirish hajmini 40 milliard dollarga etkazish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish»³ belgilanganligi bankda kreditlashtirish operatsiyalari samaradorligini oshirishda buxgalteriya hisobi va auditning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi, 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son ««O'zbekiston-2030» strategiyasini» «Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida» 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi», 2020-yil 19-martdagi PF-5969-son «Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 19-sentyabrdagi PQ-3946-son «O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida» gi PF-5992-sonli Farmoni, 2020-yil 12-yanvar

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ««O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni, 2023-yil 11-sentyabr

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴. Tijorat banlarida kreditlashtirish operatsiyalari, ularni tashkil qilish va amalga oshirish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirish, ichki va tashqi auditdan o'tkazishning nazariy hamda metodologik asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va universitetlarida, jumladan, International Monetary Fund (AQSh), Bank of America (AQSh), Deutsche Bank (Germaniya), Henley Management College (Buyuk britaniya), Barclays Bank (Buyuk Britaniya), Basel Committee (Shvedtsariya), HEC Paris (Frantsiya), Rossiya banki (Rossiya) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalari, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish, auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazishga oid jahonda olib borilgan izlanishlar bo'yicha qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: stress-test kredit portfelining makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi muhim o'zgarishlarga yoki favqulodda, ammo mumkin bo'lgan voqealarga nisbatan ta'sirchanligini baholash usullari ishlab chiqilgan (International Monetary Fund, AQSh); yaxshi ishlab chiqilgan ichki nazorat tizimi, jumladan, mustaqil va samarali ichki audit xizmati korporativ boshqaruvning ajralmas elementi hisoblanishi asoslangan (Basel Committee, Shvedtsariya); kreditlashtirishda moliyaviy shaffoflik, buxgalteriya hisobining ahamiyati va ECL (Expected Credit Loss) modelini joriy qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan (World Bank, AQSh); riskga asoslangan ichki audit samarali, tejamkor va dolzarb ichki audit orqali qo'shimcha qiymat yaratishni maqsad qiladi (The Institute of Internal Auditors, Avstraliya); MHXSlarida moliyaviy vositalar tasniflangan (International Financial Reporting Standards (IFRS), Buyuk britaniya).

Xalqaro darajada xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, ilmiy markazlar, oliy ta'lim muassasalari kreditlashtirishning mohiyati, kreditlashtirish operatsiyalarini buxgalteriya hisobida hisobga olish, moliyaviy hisobotda aks ettirish, kredit risklarni boshqarish, ichki auditdan o'tkazishning uslubiy, nazariy-metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: tijorat banklarida kreditlashtirishni takomillashtirish; kredit riskini aniqlash va baholashni o'rganish va ularni bartaraf etish yo'llarini takomillashtirish; kreditlashtirish operatsiyalarini buxgalteriya hisobida hisobga olishni takomillashtirish; kredit portfelini stress-testdan o'tkazishni takomillashtirish; kreditlashtirish jarayonini ichki auditdan o'tkazish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalari, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish va ichki auditdan o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijlik iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular jumlasiga J.Ashton, A.Gregoriou, F.Authority, R.Ball, O.Lavrushin,

⁴ Blaschke W., Jones T., Majnoni G., Peria S-M. «Stress Testing of Financial Systems: An Overview of Issues, Methodologies, and FSAP Experience», IMF Working Paper, 2001. Bank of America. Concolidated Balance Sheet. Annual Reports. <http://www.bankofamerica.com>; Deutsche Bank. link.springer.com, Concolidated Balance Sheet. Annual Reports.www.db.com; Barclays bank. Concolidated summary Balance Sheet. Annual Reports.www.barclays.com; Basel Committee on Banking Supervision Interest rate risk in the banking book Issued for comment by 11 September 2015 (www.bis.org) Translation of: Financial Soundness indicators: Compilation Guide. International Monetary Fund, 2007. ISBN 1-58906-401-0. www.imf.org; Joël Bessis Risk Management in Banking, 4th Edition Wiley 2015, 384 p., Политика управления рисками Банка России www.cbr.ru/Content/Document/File/36486/policy.pdf.

G.Korobova, P.Barrios, P.Papp, A.Beatty, S.Liao, A.Birimkulova, J.Bischof, H.Daske, J.Bourne, J.Christophe, A.Durović, G.Gebhardt, A.Gryaznova, O.Lavrushin, X.Liu, A.Montgomery, K.Srinivasan, G.Lobo, G.Mariassunta, Ya.Yishay, V.Mitroxin, A.Gribanov, A.Mixaylov, M.Monica, B.Stefan, N.Moroz, T.Nguen, Z.Novotny-Farkas, E.Onali, G.Ginesti, O.Razina, M.Gorchakova, T.Vaněk, D.Hampel, L.Vilegjanina, Ye.Mustafaeva, Ye.Zolotova, L.Yefremova⁵ kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini kiritish mumkin.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan Sh.Abdullaev, Yo.Abdullaev, T.Qoraliev, Sh.Toshmurodov, S.Abdullaeva, Sh.Abdullaeva, U.Azizov, M.Adilov, F.Abduvaxidov, B.Berdiyarov, A.Ibragimov, N.Idiev, T.Karaliev, M.Fayzullaeva, N.Karimov, K.Navro‘zova, X.Otamurodov, R.Qurbonov, S.Normuxamedov, O.Sattarov, U.Saxobov, I.Sayfidinov, A.Sheraliev, D.Toshpulatov, A.Avlokulov,

⁵ Анализ и аудит деятельности банка Ч.2: учеб. Пособие / Л.С. Ефремова, Минск: БГЭУ, 2011. - 160 с.; Ashton, J. K., & Gregoriou, A. (2017). Does an Overdraft Facility Influence the Customer Costs of Using a Personal Current Account? *International Journal of the Economics of Business*, 24(1), 1–26.; Authority, F. C. (2020). Finalised guidance Overdrafts and coronavirus: updated temporary guidance for firms.; Ball, R. (2016). IFRS – 10 years later. *Accounting and Business Research*, 46(5), 545–571. <https://doi.org/10.1080/00014788.2016.1182710>; Банковское дело: Учебник. - 2-е изд., перераб. и доп./ Под ред. О.И. Лаврушина. - М.: Финансы и статистика, 2005. -672с: ил.; Barrios, P., & Papp, P. (2017). IFRS 9: A new model for expected loss provisions for credit risk. In *SEFO-Spanish Economic and Financial Outlook* (Vol. 6, Issue 1); Beatty, A., & Liao, S. (2014). Financial accounting in the banking industry: A review of the empirical literature. *Journal of Accounting and Economics*, 58(2–3), 339–383. <https://doi.org/10.1016/j.jaccsec.2014.08.009>; Биримкулова А.Д. Внутренний аудит кредитных операций в коммерческих банках Киргизской республики: проблемы и пути их решения // Вестник академии государственного управления при Президенте Киргизской республики; Bischof, J., & Daske, H. (2016). Interpreting the European Union’s IFRS Endorsement Criteria: The Case of IFRS 9. *Accounting in Europe*, 13(2), 129–168. <https://doi.org/10.1080/17449480.2016.1210181>; Christophe J. Godlewski How to get a syndicated loan fast? The role of syndicate composition and organization *Finance* 2010/2 (Vol. 31), pages 051-092; Durović, A. (2019). Macroeconomic Approach to Point in Time Probability of Default Modeling - IFRS 9 Challenges. *Journal of Central Banking Theory and Practice*, 8(1), 209–223. <https://doi.org/10.2478/jcbtp-2019-0010>; Gebhardt, G. (2016). Impairments of Greek Government Bonds under IAS 39 and IFRS 9: A Case Study. *Accounting in Europe*, 13(2), 169–196. <https://doi.org/10.1080/17449480.2016.1208833>; Liu, X., Montgomery, A., & Srinivasan, K. (2018). Analyzing bank overdraft fees with big data. *Marketing Science*, 37(6), 855–882. <https://doi.org/10.1287/mksc.2018.1106>; Lobo, G. J. (2017). Accounting research in banking – A review. *China Journal of Accounting Research*, 10(1), 1–7. <https://doi.org/10.1016/j.cjar.2016.09.003>; Mariassunta Giannetti, Yishay Yafeh Do Cultural Differences Between Contracting Parties Matter? Evidence from Syndicated Bank Loans // *Management science* Vol. 58, No. 2, February 2012, pp. 365–383; Митрохин В.В., Грибанов А.В. Синдицированное кредитование как способ банковского фондирования // *Современные проблемы науки и образования*. – 2014. – № 4.; Михайлов А.Е. Механизм синдицированного кредитования в крупных частных российских банках и направления его совершенствования. Автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. – М.: - 2015 25-стр.; Monica, M., & Stefan, B. (2019). Ifrs 9 benchmarking test: Too complicated to worth doing it? *Economic Computation and Economic Cybernetics Studies and Research*, 53(1), 217–230. <https://doi.org/10.24818/18423264/53.1.19.14>; Moroz N. Regional features of the global market of syndicated lending. *Baltic Journal of Economic Studies* Vol. 2, No. 2, 2016; Нгуен Тхи Вет Ле Развитие методики внутреннего аудита на основе риск-ориентированного подхода в коммерческих организациях // *Baikal Research Journal*. 2016. №2.; Novotny-Farkas, Z. (2016). The Interaction of the IFRS 9 Expected Loss Approach with Supervisory Rules and Implications for Financial Stability. *Accounting in Europe*, 13(2), 197–227. <https://doi.org/10.1080/17449480.2016.1210180>; Onali, E., & Ginesti, G. (2014). Pre-adoption market reaction to IFRS 9: A cross-country event-study. *Journal of Accounting and Public Policy*, 33(6), 628–637. <https://doi.org/10.1016/j.jaccpubpol.2014.08.004>; Разина О.М. Методические особенности проведения проверки кредитных операций юридических лиц в практике внутреннего аудита банка // *Банковское дело*, 2015, № 12, С. 58-61; Vaněk, T., & Hampel, D. (2017). The probability of default under ifrs 9: Multi-period estimation and macroeconomic forecast. *Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis*, 65(2), 759–776. <https://doi.org/10.11118/actaun201765020759>; Вилегжанина, Л. & Мустафаева, Э. В. (2019). Оценка динамики и структуры овердрафтного кредитования в РФ. *Вектор экономики*, 11(41), 70. <https://elibrary.ru/item.asp?id=41548679>; Золотова Э.А. Управленческий учет и аудит кредитного портфеля в коммерческом банке. Автореферат диссертации на соискание учёной степени к.э.н. Ростов-на-Дону, 2003

A.Rahimov, N.Rizaev, M.Marpatov, M.Yadgarova⁶lar kreditlashtirish va uni hisobga olish, kredit riski, kredit portfeli va kredit riskini ichki auditdan o'tkazish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1-son «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish» tadqiqot loyihasi bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari kreditlashtirish operatsiyalari, ularni buxgalteriya hisobi va ichki auditini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kreditlashtirishning mohiyati, ularni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda hisobga olish va audit qilishning zarurligini asoslash;

banklarda kredit operatsiyalari buxgalteriya hisobi va ichki auditning nazariy-metodologik masalalarini tadqiq qilish;

banklarda buxgalteriya hisobida kredit to'g'risida axborot shakllanishidagi muammolarni aniqlash;

banklarda buxgalteriya hisobida kredit operatsiyalarni hisobga olish, kredit riskni baholash usullarining ilmiy asoslangan, yaxlit holda tadqiq etish;

⁶ Abdullaev Sh. Tijorat banklarining ichki audit xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish – davr talabi. «Bozor, pul va kredit» jurnali, 11-son, 2018 y.; Abdullaev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullaeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009 yil, 548 bet.; Abdullaeva Sh. Z. Bank risklari va kreditlash. T.: Moliya, 2002 y. -304 b.; Abdullaeva Sh.Z., Azizov U.O'., Bank ishi. –T: Iqtisod-moliya, 2019. -344 b.; Adilov M.M. Tijorat banklari kredit portfeli samaradorligini oshirishda kredit siyosatining o'rni va ahamiyati. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali. 2024 yil 4(07)-son, B. 38-45.; Abduvaxidov F.T. Banklarda buxgalteriya hisobi, darslik Toshkent. 2014 y.; Berdiyarov B.T. Xalqaro talablar asosida tijorat banklarining likvidligini ta'minlash / Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali 2-son, 2016 yil b. 20; Ibragimov A.K. Auditning xalqaro standartlari asosida tijorat banklarida ichki auditning tashkiliy asoslari. O'quv qo'llanma. -T.:Moliya, 2013. - 384 b.; Idiev N.F. Tijorat banklari auditorlik risklarini baholashni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozgan dissertatsiya avtoreferati – T.: 2011. - 26 b.; Karaliyev T.M., Fayzullaeva M.M. Банковский аудит. Учебное пособие. – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012.; Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish va uni takomillashtirish muammolari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati – T.: 2007. - 42 b.; Navro'zova K., Otamurodov X., Qurbonov R.. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent. 2014 yil, .188- bet.; Normuxamedov S. Sinditsiyalashtirilgan kreditlar: mohiyati, xalqaro va mahalliy moliya bozoridagi ahamiyati "BIZNES - EKSPERT" jurnali. <http://biznes-daily.uz/uz/birjaexpert/68041-sinditsiyalashtirilgan-kreditlar-mohiyati-xalqaro-va-mahalliy-moliya-bozoridagi-ahamiyati>; Otamurodov H.H. Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019 y. – B.56.; Sattarov O.B. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi barqarorligini ta'minlash metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2018 y. – B.67; Сахобов У.О. Совершенствование процесса выборки при банковском аудите кредитной деятельности. Автореферат диссертации на соискание к.э.н. – T.: 2007. -22 c; Sayfidinov I.F., Sheraliev A. Improving the practice of overdraft lending in commercial banks of the country. 2019 y. <https://uzjournals.edu.uz/iqtisodiyot>; Toshpulatov D.A. Tijorat banklarida muammoli aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. PhD ilmiy darajasi olish uchun yozgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2021, 58 bet.; Toymuhamedov I.R. «Bank ishi». O'quv qo'llanma, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, 144 b.; Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Avlokulov A.Z., Rahimov A.M.– Bank auditi metodologiyasi / darslik – T.: «Nihol print» OK, 2022. – 480 b.; Umarov Z.A., Ibragimov A.K., Rizaev N.K., Marpatov M.D.– Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari / darslik – T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2019 – 500 b; Yadgarova M.L. Tijorat banklarida kredit portfelini auditining dolzarbligi. Journal of New century innovations 2024-05-21

kreditlashtirish operatsiyalar auditida riskka asoslangan ichki auditini tashkil etish uslubiyoti bo'yicha yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish;

kreditlashtirish operatsiyalar auditida tahliliy amallarni qo'llashning uslubiy jihatlari tadqiq etish;

muammoli kreditlarning mavjudligi va ularni to'g'ri hisobga olish hamda kamaytirishda auditning nazariy va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish.

tijorat bankida kredit operatsiyalariga tenglashtirilgan faktoring, forfeyting, lizing, bank kafolati va qoplanmagan akkreditiv amaliyotlari kabi kredit riski mavjud bo'lgan aktiv operatsiyalar va uni hisobga olishni tadqiq qilish;

bank kredit portfeli shakllanishi, uni boshqarish jarayonini ichki auditini amalga oshirish tahlil qilish;

banklarda kreditlashtirishni buxgalteriya hisobini MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar»ni qo'llash asosida takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalarini buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti tijorat banklarining kreditlashtirish faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklari kreditlashtirish faoliyatini buxgalteriya hisobida aks ettirish va ichki auditini tashkil etishning nazariy-uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduktsiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy tahlil hamda iqtisodiy-matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kredit riski yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit, faktoring, forfeyting, lizing, bank kafolati va qoplanmagan akkreditiv amaliyotlarini kreditlashtirish va unga tenglashtirilgan operatsiyalariga toifasiga kiritish taklifi berilgan;

bank moliyaviy hisoboti shaffofligini oshirish uchun berilgan kreditlarni moliyaviy hisobotda amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha aks ettirish taklifi;

kredit riski mavjud kreditlashtirish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar ichki auditida risk darajasi yuqori bo'lgan, balans va balansdan tashqarida hisobga olingan muammoli aktivlar, faqat kafillik yoki sug'urta polisi bilan ta'minlangan kreditlar to'liq xajmda, boshqa kredit mahsulotlari esa kamida 20 foiz xajmda tanlov asosida ichki auditorlik tekshiruvi o'tkazish o'tkazilishi asoslangan;

bank kredit portfelidagi alohida-muhim kreditlarni kredit riski darajasiga qarab 1-bosqich - «Kredit riski past bo'lgan kreditlar», 2-bosqich - «Kredit riskida o'sish kuzatilgan kreditlar», 3-bosqich - «Qadrsizlangan kreditlar» toifasida tasniflash asoslangan;

kredit riskiga ega kreditlashtirish va unga tenglashtirilgan operatsiyalarning ichki auditini o'tkazishda «Riskka asoslangan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishning yillik rejasini ishlab chiqish reglamenti»ni ishlab chiqish, uning samaradorligini ta'minlash uchun yilda kamida bir marta Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

kredit portfeli va kredit riski ichki auditida stress-test stsenariylarini tuzish, kredit portfeli sifatiga turli omillar ta'sirini modellash, model asosida stress-testlarini o'tkazish va kredit portfelini boshqarish taklif etilgan;

tijorat banklari kredit riskini boshqarish uchun faktoringning an'anaviy turi va reversiv turini, regress va regress huquqsiz, ko'rsatish taklif etilgan;

kreditlashtirish jarayonini monitoring qilishni kreditni monitoring qilish va kredit portfelini monitoring qilish yo'nalishlarida olib borish, kreditlarni monitoring qilishda dastlabki monitoring, kreditning maqsadli ishlatilishi monitoringi, joriy monitoring va doimiy monitoring shakllarida tashkil etish asoslangan;

bank va mijoz o'rtasida rasmiylashtirilgan barcha kredit hamda lizing shartnomalari bo'yicha yuzaga kelgan kredit va lizing berish majburiyatlarini balansdan tashqari 91809 - «Bankning kredit va lizing berish majburiyatlari» hisobvarag'ida hisobga olish taklif etilgan;

sudning hal qiluv qarori mavjud bo'lgan holda hisoblangan, lekin undirilmagan foizlar va neustoykani hisobdan chiqarish hamda undirilgan summalarni mijoz hisobvarag'iga qaytarish taklifi berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlar, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda xulosa va takliflarning tijorat banklari tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar tijorat banklarida kreditlashtirishni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirish, ichki auditni o'tkazishni takomillashtirishga, tadqiqot mavzusi doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ulardan tijorat banklarida kreditlashtirish amaliyoti samaradorligini oshirish, moliyaviy aktivlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda shaffov aks ettirish, ichki audit tekshiruvlarini amalga oshirish bo'yicha qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot ishi materiallaridan oliy o'quv yurtlarida «Banklarda buxgalteriya hisobi», «Bank audit», «Bank audit metodologiyasi», «Bank ishi» kabi fanlarni o'quv dasturlari, sillabuslarni takomillashtirish va o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari kreditlashtirish operatsiyalari buxgalteriya hisobi va ichki auditini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kredit riski yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kredit, faktoring, forfeyting, lizing, bank kafolati va qoplanmagan akkreditiv amaliyotlarini kreditlashtirish va unga tenglashtirilgan operatsiyalariga toifasiga kiritish taklifi «O'zsanoatqurilishbank» ATB Boshqaruvining 2023-yil 28 dekabrda 395-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATBning kredit siyosatida («O'zsanoatqurilishbank» ATB

ning 2025-yil 3 apreldagi 27-06/6827-son ma'lumotnomasi) va «Biznesni rivojlantirish banki» ATB Bank Boshqaruvining 2024-yil 14-fevraldagi 25/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan ««Biznesni rivojlantirish banki» ATBning kredit siyosati»da («Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning 2025-yil 30 iyundagi 07-10/8509/1-son ma'lumotnomasi) o'z aksini topgan. Natijada kredit riskini baholash, uni boshqarish, kreditlashtirish amaliyotlarini tashkil etish, faktoring, forfeyting, lizing, bank kafolati va qoplanmagan akkreditiv bilan bog'liq risklarni kredit risklariga tenglashtirish, kredit portfelini shakllantirish va boshqarish samaradorligi oshdi. «O'zsanoatqurilishbank» ATB ning kredit portfeli 2024-yilda 65,5 trln. so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 14,5 % ga oshgan;

bank moliyaviy hisoboti shaffofligini oshirish uchun berilgan kreditlarni moliyaviy hisobotda amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha aks ettirish taklifi «O'zsanoatqurilishbank» ATB Boshqaruvining 2022-yil 14 fevraldagi 16/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATBning Buxgalteriya hisobi siyosatida («O'zsanoatqurilishbank» ATB ning 2025-yil 3 apreldagi 27-06/6827-son ma'lumotnomasi) va «Biznesni rivojlantirish banki» ATB Bank Boshqaruvining 2024-yil 14-fevraldagi 25/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan ««Biznesni rivojlantirish banki» ATBning Buxgalteriya hisobi siyosati»da («Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning 2025-yil 30 iyundagi 07-10/8509/1-son ma'lumotnomasi) o'z aksini topgan. Natijada bank aktivlarining real qiymatda aks ettirilishini, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash hamda kredit risklarini baholash va boshqarish samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

kredit riskiga ega kreditlashtirish va unga tenglashtirilgan operatsiyalarning ichki auditini o'tkazishda «Riskka asoslangan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishning yillik rejasini ishlab chiqish reglamenti»ni ishlab chiqish, uning samaradorligini ta'minlash uchun yilda kamida bir marta Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlash taklifi «O'zsanoatqurilishbank» ATB Audit qo'mitasining yig'ilishi bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Riskka asoslangan auditorlik tekshiruvlari yillik rejasini ishlab chiqish reglamenti»ni tayyorlash («O'zsanoatqurilishbank» ATB ning 2025-yil 3-apreldagi 27-06/6827-son ma'lumotnomasi) va «Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning «Riskka asoslangan auditorlik tekshiruvlari yillik rejasini ishlab chiqish reglamenti»da («Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning 2025-yil 30-iyundagi 07-10/8509/1-son ma'lumotnomasi) o'z aksini topgan. Natijada kredit riski yuqori bo'lgan ichki audit tekshiruvi obyektlarini barvaqt aniqlash, ichki audit xizmati xodimlarining ish unumdorligini «O'zsanoatqurilishbank» ATB 10 foizga, «Biznesni rivojlantirish banki» ATB da 8 foizga oshirish hamda kreditlashtirish amaliyotlarini auditorlik tekshiruvi muddatini mos ravishda 7 va 2 kunga qisqartirish imkonini yaratgan. Shuningdek, 70410501-«Bank ishi va auditi» magistratura mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan «Bank auditi metodologiyasi» fani bo'yicha tayyorlangan darslikka kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 13-maydagi 166-sonli buyruq, 166-395 raqamli guvohnoma). Ushbu ta'rifning darslikka kiritilishi kreditlashtirish operatsiyalarini riskka asoslangan ichki auditni o'tkazishning nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan;

kredit riski mavjud kreditlashtirish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar ichki auditida risk darajasi yuqori bo'lgan, balans va balansdan tashqarida hisobga olingan muammoli aktivlar, faqat kafillik yoki sug'urta polisi bilan ta'minlangan kreditlar to'liq xajmda, boshqa kredit mahsulotlari esa kamida 20 foiz xajmda tanlov asosida ichki auditorlik tekshiruvi o'tkazish taklifi «O'zsanoatqurilishbank» ATB filiallarida o'tkaziladigan ichki audit tekshiruvi dasturini tayyorlash tartibi»da («O'zsanoatqurilishbank» ATB ning 2025-yil 3-apreldagi 27-06/6827-son ma'lumotnomasi) va ««Biznesni rivojlantirish banki» ATBda ichki audit tekshiruvini o'tkazish tartibi» da («Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning 2025-yil 30-iyundagi 07-10/8509/1-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada ichki audit xizmati tomonidan filiallarni kreditlashtirish faoliyatini tekshirishning o'rtacha muddatini 5 kunga qisqartirdi, ichki audit xodimlari ish unumdorligini 10 foizga oshirdi, tanlov mezonlari aniqlashtirildi, auditorlik dalillarining etarliligini ta'minlandi;

bank kredit portfelidagi alohida-muhim kreditlarni kredit riski darajasiga qarab 1-bosqich - «Kredit riski past bo'lgan kreditlar», 2-bosqich - «Kredit riskida o'sish kuzatilgan kreditlar», 3-bosqich - «Qadrsizlangan kreditlar» toifasida tasniflash taklifi 5230700-«Bank ishi va auditi» bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan «Banklarda buxgalteriya hisobi» fani bo'yicha tayyorlangan darslikka kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrdagi 676-sonli buyruq, 676-396 raqamli guvohnoma). Ushbu ta'rifning darslikka kiritilishi kreditlarni risk darajasiga qarab tasniflash, ular bo'yicha zahiralarni yaratish va uni buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilgan. Shuningdek, mazkur taklif «O'zsanoatqurilishbank» ATBning kredit siyosati, «O'zsanoatqurilishbank» ATBning Buxgalteriya hisobi siyosati, «O'zsanoatqurilishbank» ATBning risk-appetiti va risk profili siyosatida («O'zsanoatqurilishbank» ATB ning 2025-yil 3-apreldagi 27-06/6827-son ma'lumotnomasi) va ««Biznesni rivojlantirish banki» ATBning kredit siyosati», ««Biznesni rivojlantirish banki» ATBning Hisob siyosati», «Biznesni rivojlantirish banki» ATBning risk-appetiti va risk profili siyosati»da («Biznesni rivojlantirish banki» ATB ning 2025-yil 30 iyundagi 07-10/8509/1-son ma'lumotnomasi) aks etgan holda, alohida-muhim kreditlarni moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashishi, alohida-muhim kredit uchun kredit riskini baholashga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 7 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ilmiy monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, shundan, 1 ta xorijiy va 10 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 225 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiyaning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalari, ularning buxgalteriya hisobi va ichki auditining nazariy va metodologik asoslari**» deb nomlanib, unda tijorat banklarida kreditlashtirishning mohiyati, uni buxgalteriya hisobi aks ettirish va audit qilishning zarurligi, banklarda kreditlashtirish operatsiyalari buxgalteriya hisobining nazariy masalalari, tijorat banklarida kreditlashtirish operatsiyalari ichki auditining nazariy-uslubiy masalari tadqiq etilgan va bob yakunida tadqiqot yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor sohalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga va real sektordagi investitsion faollikni oshirishni yanada rag'batlantirishga qaratilgan siyosatning davom ettirilishi natijasida banklarning jami kredit portfeli 2025-yil 1 mart holatiga 540,0 trln. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 67,6 trln. so'mga oshgan⁷. Shuning uchun bugungi kunda tijorat banklarida kreditlashtirish amaliyoti to'g'ri tashkil etilganligi, ajratilgan kreditlarning o'z muddatida qaytarilishini ta'minlaydi. Respublikamiz tijorat banklarining kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushining yuqori ekanligi (2025-yil 1 mart holatiga 4,5 foiz), mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash, kredit operatsiyalari hisobi va auditor tizimida kamchiliklar borligini, ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston tijorat banklari faoliyatini uzluksiz nazorat qilishni va ularni samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlar ba'zasini vujudga keltiruvchi buxgalteriya hisobi va hisobotining uslubiy asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Banklarda kredit operatsiyalarni amalga oshirishda, uni hisobga olishda va uning to'g'riligini ta'minlashda auditning ham alohida o'rni mavjud. Auditorlik tekshiruvi orqali ortiqcha, asossiz xarajatlarni aniqlash, ularni kamaytirish, va shu asosda daromadlarni ko'paytirish imkoniyatlari aniqlanadi.



1-rasm. Tijorat banklari aktivlari va kreditlari dinamikasi⁸ (trln. so'm hisobida)

⁷ www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki saytining statistik ma'lumotlari

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

1-rasmdan tijorat banklarining jami aktivlari oxirgi yillarda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2025-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 769,3 trln. so'mga etdi. 2012-yildan 2016-yilga qadar har yili o'rtacha 22,5 foizga o'sgan, 2017-yilda 98 foizga o'sgan, buning asosiy sababi xorijiy valyutaning milliy valyutaga nisbatan rasmiy kursi keskin o'sishi bo'lgan, 2018-2020-yillarda o'rtacha 30 foizni, 2021-2022-yillarda 23 foizni, 2023-2024-yillarda 17 foizni tashkil qilgan. Banklar tomonidan ajratilgan kreditlari qoldig'i so'nggi o'n yilda deyarli 12,5 barobarga ko'payib, 2025-yilning 1 yanvar holatiga ko'ra 533,1 trln. so'mni tashkil etdi. 2015-2016-yillarda o'rtacha 25 foizga o'sgan, 2017-yilda 107 foizga o'sgan, buning asosiy sababi kreditlar tarkibida xorijiy valyutada berilgan kreditlarning ulushi yuqori bo'lganligi, 2018-2020-yillarda o'rtacha 36 foizni, 2021-2022-yillarda 19 foizni, 2023-2024-yillarda 17 foizni tashkil qilgan.

Bank aktivlari tarkibida kreditlar asosiy o'rinni egallaydi. Banklarning kredit operatsiyalari orqali iqtisodiyotda mablag'larga ehtiyoj sezayotgan sohalar kreditlanadi. Kredit takror ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi. Banklarning faoliyati bevosita mablag'lar bilan bog'liq bo'lganligi sababli moliyaviy aktivlar salmog'i doim yuqori ulushga ega bo'lgan.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklari aktivlari tarkibining tahlili⁹(trln. so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar nomi	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	o'tgan yillarga nisbatan o'rtacha o'sish darajasi, %da
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	1	1,3	4,8	5,3	6,6	9,7	10,7	19,3	20,2	25,2	56,3
Markaziy bankdagi mablag'lar	9,1	12	14,9	11,4	14,8	18,9	31,5	36,6	33,2	34,5	18,7
Boshqa banklardagi mablag'lar-rezident	3,1	4,3	6,7	6,4	10,1	13,1	13,3	17,4	24,4	29,2	29,9
Boshqa banklardagi mablag'lar-norezident	4	6,6	18,3	13,5	15,4	21,7	25,1	37,7	28,9	36	37,7
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	0,7	1	1,6	2,3	3,2	9,4	19,6	31,5	32,5	59,6	70,6
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	1,2	1,6	2,5	1,9	0,4	1,6	1,3	1,6	3,3	0,4	32,6
Kredit qo'yilmalari, (sof)	42,7	52	108,5	164,7	207,6	270,2	316,4	378,9	457,8	514,7	34,3
Asosiy vositalar, (sof)	1,3	1,8	2,3	3,5	5,7	8,3	11	14,2	19,9	25	39,3
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	0,5	0,6	1,4	2,8	3,3	7,9	9,4	12,3	19,2	23,8	59,7
Bankning boshqa xususiy mulklari	0,4	0,4	0,3	0,2	0,4	1,1	1,3	3,1	4,5	6,6	52
Boshqa aktivlar	1,2	2,5	5,2	2,4	5,3	4,1	5,3	4,1	8,2	14,4	49,5
Jami aktivlar	65,2	84,1	166,6	214,4	272,7	366,1	444,9	556,7	652,2	769,3	33,2

Bundan ko'rinib turibdiki bankning asosiy aktiv operatsiyalari sifatida kredit, investitsiya, lizing va boshqa aktiv operatsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Oxirgi o'n yillikda mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganib chiqsak, birorta ham fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasini olish uchun olib borilgan ishlarda banklarda kredit operatsiyalari hisobiga

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

bag'ishlangan yaxlit tadqiqot ishini bajarilmagan. Shu jumladan banklarda buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari ham sanoqli hisoblanadi.

Kredit shartnomaviy munosabat hisoblanadi, buni O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida qo'rsak bo'ladi. Fuqarolik kodeksida «Kredit shartnomasi bo'yicha bir taraf - bank yoki boshqa kredit tashkiloti (kreditor) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) shartnomada nazarda tutilgan miqdorda va shartlar asosida pul mablag'lari (kredit) berish, qarz oluvchi esa olingan pul summasini qaytarish va uning uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi¹⁰» deb qayd etilgan. Shuningdek, kredit shartnomasi yozma shaklda tuzilishi shartligi belgilangan hamda yozma shaklda bo'lmagan kredit shartnomasi haqiqiy bo'lmashligi 755-moddada alohida qayd etilgan.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ham aynan shartnomaviy kredit munosabati natijasini qarz oluvchiga pul mablag'larini ajratgan so'ng kredit sifatida tan oladi.

Haqiqatdan ham kreditni moliyaviy aktiv sifatida qarash to'g'ri, sababi kredit berilganda qarz beruvchi pul mablag'ini yoki boshqa aktivni qarz oluvchiga berishda qarz beruvchida uni foiz bilan qaytarib olish huquqi, qarz oluvchida esa qaytarish majburiyati yuzaga keladi.

Tijorat banklari tomonidan bajariladigan operatsiyalarning maqsadi bank resurslarini joylashtirish orqali daromad olishdir. Ushbu resurlar mijoz bilan ma'lum bir shartlar asosida to'lovlilik, qaytarib berishlilik shartlari asosida shartnomaviy munosabatlarda joylashtiradi. Albatta mazkur bank operatsiyalari amalga oshirish davrida har doim ham bank tomonidan berilgan mablag'lar o'z vaqtida va to'liq qiymatda qaytib kelmasligi mumkin. Buning natijasida bank risklarining asosiy risklaridan hisoblangan kredit riski yuzaga keladi.

Kredit riski qarzдор yoki qarz oluvchi (mijoz) o'z zimmasidagi majburiyatlarni to'liq yoki o'z vaqtida bajarmaslik ehtimoli bilan bog'liq moliyaviy yo'qotish xavfidir. Bu risk bank faoliyatining eng asosiy va eng ko'p uchraydigan turi bo'lib, tijorat banklari aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kredit portfeli orqali yuzaga keladi.

Kredit riski nafaqat an'anaviy qarz berish amaliyotida, balki bankning boshqa turdagi moliyaviy operatsiyalarida ham yuzaga keladi. Jahon bank amaliyotida bunday operatsiyalar ko'proq kredit va unga tenglashtirilgan kredit operatsiyalari deb yuritiladi. Mazkur toifaga o'zida kredit riskini namoyon qiladigan faktoring, forfeyting, moliyaviy lizing, bank kafolatlari hamda qoplanmagan akkreditiv operatsiyalari kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularning barchasida kredit riski mavjud bo'lib, bu riskning manbai bankning o'z zimmasiga ma'lum majburiyatni olishidan kelib chiqadi.

Kredit riski bank faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, uning yuzaga kelish doirasi faqat kredit berish bilan cheklanmaydi. Faktoring, forfeyting, moliyaviy lizing, bank kafolatlari hamda qoplanmagan akkreditivlar kabi operatsiyalar ham bank kapitalining risk ostida ishlashini ta'minlaydi. Shu bois, mazkur operatsiyalar iqtisodiy mohiyati va risk xarakteri jihatidan kreditlashtirish faoliyatiga tenglashtirish maqsadga muvofiqdir.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishda MHXSlarining o'ziga xos o'rni bor. Banklar faoliyatini xalqaro hamkorliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, ikkinchi qism, 29.08.1996 y.

MHXS lariga asosan buxgalteriya hisobida bank tomonidan berilgan kredit dastavval amaldagi qiymatida aks ettiriladi va u qarzdorga berilgan pul mablag‘lari summasini ifodalaydi.

1.	• Kredit berishdan oldin amalga oshiriladigan jarayon hisobi
2.	• Kredit berish jarayoni hisobi
3.	• Kreditni qaytarish jarayoni hisobi
4.	• Muammoli kreditlarni qaytarish jarayoni hisobi

2-rasm. Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini hisobga olish jarayoni bosqichlari¹¹

Tijorat banklarida berilgan kreditlar buxgalteriya hisobining maqsadi hisob tizimi va foydalanuvchilar uchun bankning kredit faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tan olish, o‘lchash, ularni jamlash va ularni aniq etkazib berishdir. Bank kreditlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aniq hamda to‘g‘ri aks ettirish davrida aks ettiriladi.

Tijorat banklarida kreditlashtirish amaliyoti to‘g‘ri tashkil etilganligi, berilgan kreditlarning o‘z muddatida qaytarilishini ta’minlaydi. Ushbu jihat banklar uchun muhim hisoblanadi, sababi tijorat banklari bir tomondan o‘z aktsiyadorlari oldida javobgar bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, o‘z mablag‘larini ishonib topshirgan va bank xizmatlaridan foydalanayotgan mijozlar oldida majburiyatga egadirlar.

Bankning kredit operatsiyalari ichki va tashqi auditning ham o‘ekti hisoblanadi. Albatta bankning kredit operatsiyalarining to‘g‘ri bajarilishini, buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z vaqtida aniq aks ettirilishini, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklarni aniqlash, muammoli kreditlarning yuzaga kelish sabablarini o‘rganish va bu to‘g‘risida ma’lumotlarni bank kengashiga etkazib bank ichki auditining asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini ichki auditdan o‘tkazish boshqa operatsiyalarning audit tekshiruvlari kabi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi. Lekin o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kredit operatsiyalari auditining maqsadi kreditlashtirish jarayonining tashkil etilishi, ularning buxgalteriya hisobi va hisobotida to‘g‘ri aks ettirilishi, me’yoriy hujjatlarga rioya qilinishini, kredit portfeli sifatini yaxshilash va kredit riskini kamaytirishdir.

Kredit operatsiyalari auditi vazifalari qo‘yilgan maqsadga muvofiq belgilanishi kerak. Agar maqsad faqat ma’lum bir turdagi kreditlarni tekshirish bo‘lsa, vazifalar ham shunga mos bo‘lish kerak. Ya’ni auditning vazifalari o‘rganilayotgan obyektni ochib berishi, auditor uchun xulosa berish imkonini yaratishi lozim.

Ichki audit tomonidan bank kredit siyosatida talablar kredit berish bosqichida, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq bo‘lishi lozim.

¹¹ Muallif tomonidan tuzildi

Xozirgi kunda ko'pchilik tijorat banklarida kredit operatsiyalari ichki audit an'anaviy usulda tashkil etilmoqda, bunda asosan ma'lumotlarning qonunchilik me'yorlariga, buxgalteriya hisobi va hisobotiga mos kelishi tekshirilib kelinmoqda. Bunday yondashuv bankning risklarini to'liq aniqlash imkonini bermayapdi. Bank ichki auditorlari tasdiqlash amalini barajarib kelishayapti.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«Banklarda kreditlashtirish operatsiyalari buxgalteriya hisobining tashkil etilishi»** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda tijorat bankida mikroqarz, overdraft krediti va uni hisobga olish, kredit munosabatlarini yuzaga keltiruvchi bank kafolati, faktoring, forfeyting va ularning buxgalteriya hisobi, tijorat banklarida sinditsiyalashtirilgan kreditlarni buxgalteriya hisobi tadqiq qilingan.

Tijorat banklari ko'rsatayotgan bank xizmatlarini mijozlar uchun qulay shartlar asosida ko'rsatishi bilan birga bankning daromadliligi, riskliligi va likvidliligiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga bank xizmatlarini ko'rsatishda hamda operatsiyalarni bajarishda ular bilan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar o'rnatadi. Bank hisobvarag'i shartnomasi shartlarida mijoz o'z hisob-kitoblarini qanday va qaysi mablag'lar hisobiga, qanday to'lov usulidan foydalangan holda to'lovlarni o'tkazish tartiblari belgilanadi.

Tijorat banklari tomonidan taklif qilinayotgan mikroqarzlarni buxgalteriya hisobida hisobga olish uchun ushbu kredit turini hisobga olishga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Umuman olganda banklarda mikroqarzlarni hisobi bankning hisob siyosati, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari asosida tashkil etadi.

Mikroqarzlarni hisobga olish uchun quyidagi hisobvaraqlardan foydalaniladi: 12501 Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar, 12503 Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar orqali berilgan qisqa muddatli kreditlar, 14901 Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar, 14913 Jismoniy shaxslarga plastik kartochkalar orqali berilgan uzoq muddatli kreditlar.


Mikroqarz ta'minot asosida berilganda ta'minot turiga qarab 94501 Garov sifatida olingan qimmatli qog'ozlar, 94502 Garov sifatida olingan mulklar va mulkiy huquq(talab)lar, 94503 Garov sifatida olingan kafolat va kafilliklar hisobvaraqlarda hisobga olinadi. Onlayn berilgan mikroqarzda ta'minot bu mijozning o'rtacha ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar summasi bo'lganligi uchun ushbu hisobvaraqlardan foydalanilmaydi.

Ayrim tijorat banklari mobil ilovalarida mikroqarzni hisobga olishda 22616 Jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlaridagi masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimi orqali boshqariladigan mablag'lari hisobvarag'idan foydalanib kelmoqda. Ya'ni, yuqorida keltirilgan buxgalteriya o'tkamasini bajarishda pul mablag'lari avvalombor elektron xamyon 22616 hisobvarag'iga qabul qilinadi, mijoz o'z xoxishiga ko'ra undan pul mablag'larini 22617 yoki 22618 hisobvarag'iga o'tkazib olib foydalanadi.

Mikroqarzlarni bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida, mikroqarzni qaytarish grafigiga binoan qaytarilib boriladi.

Overdraft bank shartnomaga asosan mijozning hisobvarag'ida pul etarli yoki mavjud bo'lmaganda hisob-kitob hujjatlarini to'lash uchun mijozning bank hisobvarag'ini qisqa muddatga kreditlaydi, hisobvaraqda debet qoldiq hosil bo'ladi.

Bunday holda, bank mijozning hisobvarag‘idan mablag‘larni oldindan kelishilgan kredit limiti doirasida mablag‘larni hisobdan chiqaradi.



3-rasm. Aholiga milliy valyutada ajratilgan overdraft¹², mlrd. so‘mda

Tijorat banklari tomonidan aholiga berilgan overdraft kreditlari so‘nggi besh yilda eng ko‘p overdraft berilgan yil 2021-yil hisoblanib, 2575 mlrd. so‘mni tashkil qilgan, 2023-yilda aholi overdraftni eng kam olgan yil bo‘lgan.

2-jadval

Tijorat banklari tomonidan taklif qilinayotgan overdraftlar to‘g‘risida ma‘lumot¹³, 2025-yil 1 mart holatiga

Bank nomi	Foiz stavkasi	Muddati, oy	Maksimal summa, mln. so‘mda	Overdraft berish usuli
«O‘zsanoatqurilishbank» ATB	26,9%	12	50,0	naqd pul, bank kartasiga
	26,9%	12	30,0	onlayn vaqtincha to‘xtatilgan
«O‘zmilliybank» AJ	22-24%	1-24	50,0	ish haqi loyixasi ishtirokchisiga, bank kartasiga
«Biznesni rivojlantirish banki» ATB	24%	24	oylik ish haqining 3 baravari, 100,0 mln. dan oshmagan holda	onlayn, oflayn, ish haqi loyixasi ishtirokchisiga bank kartasiga

Xozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan taklif qilinayotgan overdraftlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak (2-jadval) overdraftlarning maksimal summasi 50 mln. so‘mni tashkil qilmoqda. Overdraftning muddati 2 yildan oshmagan holda yillik foiz stavkasi 22 foizdan yuqori bo‘lib asosan o‘z korporativ mijozlarining xodimlariga, pensionerlarga taklif qilinmoqda. Bank tizimida 2025-yil mart holatiga 37 ta tijorat banki faoliyat olib borishini hisobga olsak, ularning 9 tasi overdraft krediti taklif qilmoqda. Shuningdek, overdraft asosan jismoniy shaxslarga berilayapti. Yuridik shaxslarga overdraft kreditini taklif qilayotgan tijorat banklari soni sanoqli. Yuridik shaxslarga berilgan overdraft kreditlar boshqa kreditlar singari hisobga olinishi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida belgilangan.

Bank kafolatlari iqtisodchilar va huquqshunoslar tomonidan keng muxokama qilinadigan masalalardan hisoblanadi. Bank kafolati printsiptalning topshirig‘iga ko‘ra bankning benifitsiar oldidagi majburiyatini ifodalab, to‘lovni kafolatlovchi, majburiyatni bajaruvchi, kredit munosabatlarini yuzaga keltiruvchi bank operatsiyasidir.

Banklar tomonidan to‘lovlar kafolati, shartnoma shartlarini bajarish kafolati, kreditni qaytarish kafolati, tender savdolarida qatnashish uchun tender kafolati, bo‘nak qaytarilishi kafolati, bojxona to‘lovlari kafolati va qonunchilikka zid bo‘lmagan boshqa maqsadlar uchun kafolatlar berilmoqda.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

¹³ Tijorat banklari saytlari ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi


3-jadval

O'zsanoatqurilishbank ATBda bank kafolatlari tahlili¹⁴, mlrd. so'm

№	Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.
1	Berilgan kafolatlar	1599,4	2424	1834,2	1933,4	1457,7
1.1	Shundan, milliy valyutada	70,4	104,2	75,2	73,5	56,9
1.2	xorijiy valyutada	1529,0	2319,8	1759,0	1859,9	1400,8
2	Berilgan kafolatlar, ulushi % da	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
2.1	Shundan, milliy valyutada, ulushi % da	4,4	4,3	4,1	3,8	3,9
2.2	xorijiy valyutada, ulushi % da	95,6	95,7	95,9	96,2	96,1
3	Berilgan kafolatlar bo'yicha komission daromad	9,1	36,7	30	30,3	50,2
4	Berilgan kafolatlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish darajasi, % da	x	51,6	-24,3	5,4	-24,6

3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki O'zsanoatqurilishbank ATBda bank kafolatlari 2023-yilda 1457,7 mlrd. so'mni tashkil qilib o'tgan yillarga nisbatan kamaygan. Bank kafolatlariga e'tibor bersak, xorijiy valyutada berilgan kafolatlar summasi deyarli 96 foizni tashkil qiladi, milliy valyutadagi kafolatlar esa 4 foizni tashkil qiladi. Bu bankning asosan mijozlarining import operatsiyalarini bajarishda kafolat berganligidan dalolat beradi va bunda valyuta riski yuqoriligini ko'rsatadi. Maxalliy darajada kafolatlar summasining kamligi bu sohada bankning faoliyatini yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xar doim ham banklar katta summada kredit so'rab murojaat qilgan mijozlarning talabini bajarishga imkoni bo'lmaydi yoki bo'lsa ham kredit ajratishda extiyotkorlik bilan yondashadi. Sababi bunda kredit riski ancha yuqori bo'ladi. Buxgalteriya hisobi uchun ushbu kredit turini hisobga olish jarayoniga o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Ya'ni asosiy e'tibor kredit riskini taqsimlash, kredit ta'minotini hisobga olish, kredit va unga hisoblangan foizlarni hisobga olish jarayonida tijorat banklaridan ma'lum yondashuvni talab qiladi.




4-rasm. Sinditsiyalashtirilgan kreditlar hajmi¹⁵ (mlrd. so'mda)

O'zbekiston bank tizimida sinditsiyalashtirilgan bank kreditlari hajmi so'nggi besh-yilda o'rtacha 4,7 trln. so'mni tashkil qilib, o'rtacha o'sish 6,4 foizni tashkil qilgan. 2020-2023-yillarda sinditsiyalashtirilgan kreditlashtirish hajmi o'sib borgan, 2024-yilda esa o'tgan yilga nisbatan kamaygan.

Shu o'rinda xalqaro amaliyotda sinditsiyalashtirilgan kreditlar bozorini o'rganib chiqsak.

¹⁴ O'zsanoatqurilishbank ATB hisobot ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



5-rasm. Jahonda sinditsiyalashtirilgan kreditlar hajmi¹⁶ (trln. AQSh dollarida)

Xalqaro miqiyosda sinditsiyalashtirilgan kreditlashtirish xajmi 2023-yilda 4,1 trln. AQSh dollarini tashkil etdi, bu tahlil qilinayotgan barcha yillarga nisbatan kam, faqat 2020-yilga nisbatan yuqoriroq. 2023-yilda bitimlar soni 4 300 taga yaqin bo'lgan va 2013-yildan beri tuzilgan bitimlar soni bo'yicha avvalgi yilga nisbatan eng past yillik davr hisoblanadi.

Bank sindikati ishtirok etayotgan etakchi bank ham, ishtirokchi bank ham kredit shartnomasiga muvofiq o'zida sinditsiyalashtirilgan kredit hisobini yuritishi lozim bo'ladi. Buning uchun hisobvaraqlar rejasiga muvofiq kredit shartlaridan kelib chiqqan holda alohida kredit hisobvarag'i ochadi. Ushbu kreditni berish majburiyatini 91809 - «Bankning kredit va lizing berish majburiyati» balansdan tashqari hisobvaraqda hisobga olish kerak bo'ladi.

Sinditsiyalashtirilgan kreditni 91809 - «Bankning kredit va lizing berish majburiyati» balansdan tashqari hisobvaraqda hisobga olinishi sindikatda ishtirok etayotgan tijorat banki uchun juda muhim chunki bank kredit berish bo'yicha qancha majburiyat olganini bilib turadi va uni belgilangan muddatda bajarishi lozim bo'ladi.

Tijorat banki kredit berish majburiyati kredit shartnomasini tuzganda vujudga keladi, kredit shartnomasi shartlariga muvofiq mijozning topshirig'iga muvofiq kredit hisobvarag'idan pul mablag'lari mablag' oluvchining hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

Kredit shartnomasi shartlarini bajarish bo'yicha o'z majburiyatlarini tijorat banklari balansdan tashqari hisobvaraqda hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun hisobvaraqlar rejasida 91809-Bankning kredit va lizing berish majburiyati nomli hisobvaraq mavjud. Ushbu hisobvaraq tijorat banklari tomonidan asosan kredit liniyasi hisobidan yoki sinditsiyalashtirilgan kreditlar bo'yicha majburiyatlarni hisobga olishda foydalanadi.

Hisobvaraqqa berilgan ta'rifga e'tibor qaratadigan bo'lsak, unda tijorat bankining mijozlarga yoki boshqa banklarga kredit va/yoki lizing berish majburiyatlari hisobi olib borilishi qayd etilgan. Bu mijoz hoh jismoniy shaxs bo'lsin, hoh yuridik shaxs bo'lsin yoki boshqa tijorat banki bo'lsin ularga kredit shartnomasi tuzilgandan so'ng bankning kredit berish majburiyati yuzaga kelganda hisobga olishning zarurligini ko'rsatadi.

¹⁶ Global Syndicated Loans Review ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi
www.refinitiv.com/dealsintelligence

Ammo bir nechta tijorat bankining hisob siyosatini o'rganish davrida asosan 91809 hisobvaraqa kredit liniyasi bo'yicha tuzilgan shartnomalarda yoki sinditsiyalashtirilgan kredit shartnomalari hisobga olingani kuzatildi.

Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan barcha kredit hamda lizing shartnomalari rasmiylashtirilgandan so'ng, kredit va lizing berish majburiyatlarini balansdan tashqari 91809 - «Bankning kredit va lizing berish majburiyatlari» hisobvarag'ida hisobga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning bir nechta sabablarini keltirib o'tsak.

Asosiy sabablardan biri bu yagona balans va yagona vakillik hisobvarag'ida ishlayotgan tijorat banklarida likvidlilik riskini kamaytirish imkonini beradi. Bu tuzilayotgan kredit shartnomalari soni va summasidan kelib chiqqan holda kredit resurslarini joylashtirish, vakillik hisobvarag'idagi mablag'larni boshqarishga yordam beradi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot uchun bankning mijozlarga va boshqa banklarga kredit va/yoki lizing berish majburiyatlarini shaffof hisobga olishni ta'minlaydi, bank boshqaruvi uchun ishonchli va sifatli ma'lumot berish imkoniyati yaratiladi.

Bank mijozlari uchun tuzilgan kredit shartnomasi doirasida mablag'larni to'liq va o'z vaqtida olish imkonini beradi, bank xizmatidan foydalanish darajasi oshadi, asosiysi kreditlashtirish jarayonidan mamnunlik darajasi oshadi, o'z navbatida bank imidjining ko'tariliga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda tijorat banklarida olingan kreditlarning buxgalteriya hisobini, jumladan, jalb qilingan xalqaro kreditlarning buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishi olingan kreditlarning yo'nalishi, maqsadi, kredit summasi, foiz stavkasi, muddati, imtiyozli davri, vositachilik xaqi, ta'minoti va so'ndirilish muddatlari hisob-kitoblarning shaffofligini oshiradi, ularning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlaydi, bankning kontragentlari oldida imidji oshishini ta'minlaydi va h.k.

Dissertatsiyaning «**Tijorat banklarida kredit operatsiyalari ichki auditini tashkil qilish amaliyoti tahlili**» deb nomlangan uchinchi bobida bankda kreditlashtirish operatsiyalari ichki auditini tashkil etilishi, tijorat banki kreditlashtirish operatsiyalari ichki auditida tahliliy amallarni qo'llash, bank kredit portfeli ichki auditini amalga oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.


Kredit operatsiyalari auditini ichki auditda ham, tashqi auditda ham audit obyekti hisoblanadi. Tijorat banklarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshiruvlarini auditning muvofiqlik turiga kiritsak bo'ladi, chunki muvofiqlik auditini asosan bankning muayyan moliyaviy yoki xo'jalik faoliyatini ularning belgilangan shartlar, qoidalar yoki qonunlarga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Kredit operatsiyalari auditini ham amalga oshirilgan kredit operatsiyalari amaldagi qonunchilik me'yorlariga mos kelishi, me'yorlarning bajarilishi, ishning to'g'ri tashkil qilinganligi, buxgalteriya hisobi va hisobotida to'g'ri aks ettirilishi nuqtai nazaridan tekshirilayapti deyish mumkin.

Fikrimizcha, ichki audit xodimlari kreditlashtirish jarayonida yuzaga keladigan risklarni aniqlash, ularni kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishi, bankning faoliyatini rivojlantirishga o'z xissasini ko'shishlari kerak.

Bunda riskka asoslangan auditni o'tkazish kreditlashtirish jarayonida ichki nazorat tizimida mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish imkonini beradi. Ichki auditni o'tkazish vaqtini, resurslarni tejaydi, ish samaradorligini oshiradi.

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari auditi asosan kompleks audit tarkibida o'tkaziladi. Kompleks audit jarayonida kredit operatsiyalari har tomonlama va o'zaro bog'liq barcha faoliyat yo'nalishlari bo'yicha, jumladan, buxgalteriya hisobi, daromad va xarajatlar, shartnomalarning bajarilishi, kredit riski, iqtisodiy me'yorlarning bajarilishi audit tekshiruvidan o'tkaziladi.



6-rasm. «O'zsanoatqurilishbank» ATB va «Biznesni rivojlantirish banki»

ATB aktivlari, kreditlari, kreditlar bo'yicha foizli daromadlar dinamikasi¹⁷

«O'zsanoatqurilishbank» ATB aktivlari 2024-yilda 84,8 trl. so'mni tashkil etib, 2020-yilga nisbatan deyarli 2 baravar o'sgan. Berilgan kreditlar ham yildan-yilga o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan va 2020-yilga nisbatan 1,7 baravar ko'pdir. Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar 2024-yilda 9,0 trln. so'mni tashkil qilib, o'tgan-yillarga nisbatan oshgan, shu bilan birga bankning kreditlar bo'yicha o'rtacha daromadlilik darajasi 14 foizni tashkil qilgan. «Biznesni rivojlantirish banki» ATB da 2024-yil yakuni bo'yicha bank aktivlari 31,6 trln. so'mni tashkil qilgan, o'tgan yillarga nisbatan o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan, kreditlarning bank aktividagi ulushi ham 2020 yilga nisbatan pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

Kredit faoliyati audit qilish davrida bank tomonidan berilgan kreditlar muddati, berilgan valyuta turi bo'yicha ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kredit muddati bo'yicha o'rganilganda kredit resurslarining muddatiga muvofiqligiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, bu albatta bank likvidligiga, resurslarning qaytarilishiga ta'sir qiladi. Valyuta turlari bo'yicha o'rganilganda valyuta riskiga asosiy e'tiborni qaratish lozim.

4-jadval

Tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan kreditlar tahlili¹⁸, 01.01.2025-yil holatiga

№	Bank nomi	Jami kreditlar	shundan			
			jismoniy shaxslar		yuridik shaxslar	
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
	Jami	533 121	177 532	33,3	355 589	66,7
	Davlat ulushi mavjud banklar	366 731	92 698	25,3	274 033	74,7
	Boshqa banklar	166 391	84 835	51,0	81 556	49,0

¹⁷ «O'zsanoatqurilishbank» ATB va «Biznesni rivojlantirish banki» ATB hisobot ma'lumotlari asosida mualliq tomonidan tuzildi

¹⁸ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan 2024-yilda berilgan kreditlarning 66,6 foizi yuridik shaxslarga berilgan, o'z navbatida qolgan 33,3 foizi jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar hisoblanadi.

5-jadval

Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan tijorat banklari tomonidan mulkchilik shakli bo'yicha berilgan kreditlar tahlili¹⁹, 01.01.2025-yil holatiga

Ko'rsatkichlar nomi	Jami		Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan tijorat banklari taqsimoti							
			3 trln. so'mgacha		3 dan 10 trln. so'mgacha		10 dan 30 trln. so'mgacha		30 trln. so'mdan yuqori	
	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa	banklar soni	summa
Aktivlar	36	769 330	11	9 054	7	45 746	10	176 288	8	538 242
Kreditlar, jami	36	533 121	11	3 420	7	26 463	10	112 749	8	390 490
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar	36	177 532	11	673	7	14 740	10	40 959	8	121 160
Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	36	355 589	11	2 746	7	11 723	10	71 789	8	269 331
Aholi omonatlari	36	122 421	11	1 069	7	11 992	10	37 879	8	71 481
Yuridik shaxslar depozitlari	36	186 272	11	1 995	7	11 850	10	54 173	8	118 254
Aholi omonatlarining jismoniy shaxslarga bergan kreditlarini qoplashi, % da		69,0		158,8		81,4		92,5		59,0
Yuridik shaxslar depozitlari yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning qoplashi, % da		52,4		72,6		101,1		75,5		43,9

Aholi omonatlarining jismoniy shaxslarga bergan kreditlarini qoplashi bank tizimi bo'yicha 69,0 foizni tashkil qilgan, bu aholini kreditlashtirish jarayonida aholi omonatlaridan tashqari boshqa manbalardan ham keng foydalanilayotganidan dalolat beradi. Aktivlari 3 trln. so'mgacha bo'lgan 11 ta bankda aholi omonatlaridan keng foydalanilganini ko'rish mumkin va bu ko'rsatkich eng yuqori hisoblanadi.

Yuridik shaxslar depozitlari yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning qoplashi tizim bo'yicha 52,4 foizni tashkil qilgan bu juda past ko'rsatkich desa bo'ladi, aktivlari 3 dan 10 trln. so'mgacha bo'lgan 7 ta bankda korporativ depozitlardan samarali foydalanilganligini ko'rsa bo'ladi. 30 trln. so'mdan yuqori aktivga ega bo'lgan 8 ta bank kreditlashtirish jarayonida depozitlardan foydalanish darajasi past, ayniqsa korporativ depozitlar salmog'i juda past.

6-jadval

Tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning muddati va valyuta turi tahlili²⁰, 01.01.2025-yil holatiga

Ko'rsatkichlar nomi	Jami			Aktivlar miqdori bo'yicha guruhlashtirilgan tijorat banklari taqsimoti											
				3 trln. so'mgacha			3 dan 10 trln. so'mgacha			10 dan 30 trln. so'mgacha			30 trln. so'mdan yuqori		
	soni	trln. so'm	% da	soni	trln. so'm	% da	soni	trln. so'm	% da	soni	trln. so'm	% da	soni	trln. so'm	% da
Kreditlar, jami	36	533,1	100	11	3,4	100	7	26,5	100	10	112,7	100	8	390,5	100,0
Qisqa muddatli kreditlar	36	76,0	14,3	11	0,5	14,4	7	4,5	17,1	10	13,5	12,0	8	57,5	14,7
Uzoq muddatli kreditlar	36	457,1	85,7	11	2,9	85,6	7	21,9	82,9	10	99,2	88,0	8	333,0	85,3
Milliy valyutadagi kreditlar	36	304,4	57,1	11	3,1	90,7	7	19,6	74,2	10	72,4	64,2	8	209,3	53,6
Xorijiy valyutadagi kreditlar	36	228,7	42,9	11	0,3	9,3	7	6,8	25,8	10	40,4	35,8	8	181,2	46,4

2024-yilda jami ajratilgan kreditlarning 14,3% yoki 76,0 trln. so'm qisqa muddatli kreditlardan iborat. Bu kreditlar asosan aylanma mablag'larni moliyalashtirish, savdo va chakana biznes uchun mo'ljallangan. Jami berilgan kreditlarning 57,1% yoki 304,4 trln. so'm milliy valyutada ajratilgan. Bu milliy iqtisodiyot barqarorligi va bank tizimidagi likvidlik holati bilan bog'liq, kreditlarning 42,9% yoki 228,7 trln. so'mi xorijiy valyutada ajratilgan. Xorijiy valyutadagi kreditlar asosan importni

¹⁹ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

²⁰ www.cbu.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

moliyalashtirish, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash va xalqaro investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Kredit operatsiyalarini auditorlik tekshirish o'tkazish jarayonida xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, auditorlar tomonidan ushbu holatlarning kelib chiqish sabablari, shuningdek, uning oqibatlarining audit obyekti moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ta'siri chuqur o'rganish lozim.

Auditorlar aniqlangan xato va kamchiliklarning yuzaga kelishi sabablarini tahlil qilib, ushbu holatga yo'l qo'ygan shaxslarni aniqlaydi. Audit obyekti rahbariyati bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va kamchilikni vakolati doirasida bartaraf etish choralarini ko'radi.

Bank kredit portfeli auditida muammoli kreditlarga va ularga yaratilgan zaxilarga alohida e'tibor qaratish lozim. 2018-yil 1 yanvardan xalqaro amaliyotda joriy qilingan MHXS 9 - Moliyaviy vositalar standarti asosida kredit riski, yaratilgan zaxiralarni hisobga olish jarayoni qanday tashkil etilganiga, moliyaviy hisobotda kreditlar to'g'ri ask ettirilganini tekshirish kerak.

Kredit operatsiyalari auditida regression tahlil, retrospektiv tahlil, koeffitsientlar tahlili, solishtirma tahlil, prognoz tahlili kabi tahliliy amallardan foydalanilsa bo'ladi.

Auditorlik dalillarini tanlash masalasi xalqaro ichki audit standartlarida alohida qo'rib chiqilmagan, lekin 5-bo'limda ichki audit xizmatlarini ko'rsatishda 2 ta tamoyilda ya'ni 13-tamoyil «Audit topshiriqlarini samarali rejalashtirish» va 14-tamoyil «Audit topshirig'ini bajarish» da auditorlik topshiriqlarini bajarishda dalillarni to'plashda tanlamalarni olib borish masalasiga yondashuv shakllantirilgan.

Kreditlashtirish amaliyotlarini ichki audit tekshiruvlarida tanlanmalarni amalga oshirish jarayonida reprezentativlikni (barcha elementlarning tanlab olinish ehtimoli teng bo'lishi kerak) ta'minlash maqsadga muvofiq.

Auditorlik tanlanma tekshirish quyidagi tanlash usullaridan foydalanish mumkin: 1. Tasodifiy tanlash. 2. Tizimli tanlash. 3. Qiymati asosida tanlash. 4. Tizimsiz yoki ihtiyoriy tanlash.

Tanlash amalga oshiriladigan jamlanma ko'rsatkichlarini ko'rib chiqishda auditor stratifikatsiya yoki qiymat bo'yicha tortilgan tanlashni qullash maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risida bir qarorga keladi.

Stratifikatsiyani kreditlashtirish jarayoni, kredit riski auditida qo'llash juda samarali hisoblanadi, ayniqsa, agar kredit portfelidagi ya'ni to'plam elementlari bir-biridan ancha farq qiladigan bo'lsa (variatsion tanlov). To'liq tekshirishda, ko'pincha, asosiy to'plam qiymatga asoslanib stratifikatsiya qilinadi. Bu, auditorga yuqori qiymatli elementlarga e'tibor qaratishga yordam beradi, chunki ularda qisman xato bo'lishi mumkin, ayniqsa, ularning qimmatini oshirish nuqtai nazaridan.

Kredit portfeli auditida stratifikatsiyani qo'llashda Styordjes qoidasidan foydalansa bo'ladi. Styordjes qoidasi - bu tadqiq etilayotgan diapazonni optimal intervallarga bo'lish uchun qo'llaniladigan empirik qoida hisoblanadi.

Intervallar soni quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$k=1+[\log_2(N)],$$

bu erda: k - intervallar soni, n - kuzatuvlar umumiy soni, $\log_2(N)$ - 2 asosli logarifm, $[x]$ - x sonning butun qismi olinishini anglatadi.

Ba'zan ushbu formula 10 asosli logarifm orqali quyidagicha ko'rinishda yoziladi:

$$k=1+[3.322 \cdot \log_{10}(N)]^{21}$$

Ushbu qoida, ayniqsa, iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilishda, jumladan, auditorlik tekshiruvlari, risk tahlili, guruhlash statistikasi kabi sohalarda foydalaniladi.

Kredit risklari auditi uchun kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha quyidagi tartibda tanlov amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

bankning Risk menejment, Komplaens nazorat, Muammoli aktivlar bilan ishlovchi boshqarmalaridan olingan ma'lumotlarda risk darajasi yuqori deb topilgan kreditlar to'liq hajmda;

tekshiruv sanasida filial balansida va balansdan tashqari hisobraqamlarda mavjud muammoli kreditlar;

kredit karzdorligi qaytmasdigi faqat kafillik yoki sug'urta polisi bilan ta'minlangan kreditlar to'liq hajmda;

yuqoridagi mezonlarga tushmaydigan kredit portfelidagi eng yirik kreditlarning kamida 20 tasi;

muammoli aktivlarni so'ndirish hisobiga bank balansiga qabul qilingan mulklar - to'liq hajmda;

amaldagi bank kafolatlari, shuningdek, berilgan kafolatlar doirasida bank oldida yuzaga kelgan majburiyatlar - to'lik hajmda;

yuqoridagi mezonlarga tushmagan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlarning kamida 20 foizi hamda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning kamida 20 foizi tasodifiy tanlov asosida;

«Tahlil va rejalashtirish» boshqarmasi mutaxassislari filialning risk darajasidan kelib chiqib qo'shimcha tanlov mezonlaridan foydalanishi mumkin. Bunday holatlarda tanlov natijasida tuzilgan dastur dalolatnomasida qo'shimcha tanlov mezonlari ko'rsatib o'tiladi. Auditor maqbul deb hisoblagan tanlashdan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan risk darajasi tanlash hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Auditor maqbul deb hisoblagan risk darajasi qancha past bo'lsa, tanlashning zaruriy hajmi shuncha qatta bo'ladi.

7-jadval

ATB O'zsanoatqurilishbank kredit portfelining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlili²²

№	Iqtisodiyot sohalari bo'yicha	2020 y.		2021 y.		2022 y.		2023 y.		2024 y.		O'zgarishi	
		trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da	trln. so'm	% da
1	Sanoat	24,4	61,1	26,3	61,0	26,0	54,0	29,9	52,4	35,4	54,0	11,0	-7,1
2	Qishloq xo'jaligi	3,1	7,7	3,1	7,3	4,5	9,3	4,9	8,6	4,5	6,9	1,4	-0,8
3	Transport va kommunikatsiya	3,6	9,0	3,5	8,0	3,5	7,3	4,0	6,9	2,7	4,1	-0,9	-4,9
4	Qurilish sohasi	0,8	2,0	0,8	1,9	1,3	2,7	1,3	2,3	1,9	2,8	1,1	0,9
5	Savdo va umumiy ovqatlanish	2,0	5,0	2,5	5,7	2,9	6,0	3,5	6,1	4,1	6,3	2,1	1,3
6	Moddiy va texnik ta'minotni rivojlantirish	0,4	1,0	0,3	0,7	1,3	2,8	2,2	3,8	1,6	2,4	1,2	1,5
7	Uy-joy kommunal xizmati	0,1	0,4	0,1	0,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	-0,1	-0,4
8	Boshqa sohalar	1,2	3,1	2,1	5,0	3,1	6,5	3,6	6,2	5,5	8,3	4,2	5,3
9	Jismoniy shaxslar	4,3	10,8	4,3	9,9	5,5	11,4	7,8	13,7	9,9	15,1	5,6	4,3
10	Jami kredit va lizing summasi	39,9	100	43,1	100	48,1	100	57,1	100	65,5	100	25,6	0,0

²¹ Sturges H. The choice of a class-interval. J. Amer. Statist. Assoc., 21, 65-66.

²² ATB O'zsanoatqurilishbank hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, bankning kredit portfeli 2020-2024-yillar davomida muttasil o'sib borgan. 2020-yilda 39,9 trln. so'mni tashkil etgan umumiy kredit va lizing summasi 2024-yilga kelib 65,5 trln. so'mga etgan, ya'ni 25,6 trln. so'mga yoki 64,1% ga oshgan. Bu bank tomonidan mijozlarga ajratilgan kreditlarning yillik o'sish sur'ati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

8-jadval

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) tahlili²³

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Kreditlar (trln. so'm)	277,0	326,4	390,0	471,4	533,1
Muammoli kredilar (NPL) (trln. so'm)	5,8	17,0	14,0	16,6	21,2
Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi	2,1%	5,2%	3,6%	3,5%	4,0%

Kredit portfeli sifatini ko'rsatib beruvchi asosiy omillardan hisoblangan muammoli kreditlarni o'rganish kredit portfeli auditida muhim o'rin egallaydi. Tijorat banklarining muammoli kreditlari o'tgan yillarga nisbatan oshib borayotganligini ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan bank mummoli kreditlarni auditdan o'tkazish davrida o'ning sabablarini batafsil o'rganib borishi talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda tijorat banklari kreditlashtirish jarayonini to'g'ri tashkil qilishi, kredit riskini aniqlash va uni boshqarish, mijozlar faoliyatini o'rganish, makro va mikro darajadagi iqtisodiy holatni tahlil qilib borish, kredit portfelini monitoring qilish, ichki audit bank kredit portfelini boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. to'rtinchi bobida banklarda kreditlar buxgalteriya hisobini MHXS (IFRS) 9 «Moliyaviy vositalar»ni qo'llash asosida takomillashtirish, tijorat banklarida

MHXS-9 ni qabul qilish bilan bog'liq yangiliklarga narx ta'sirini o'rgan holda, buxgalteriya islohotlari, xususan, qonun ustuvorligi zaif bo'lgan mamlakatlarda joylashgan firmalarning aksiyadorlari va milliy buxgalteriya standartlari va MHXS-39 o'rtasidagi farq zaifroq ekanligini ko'rsatadi.

Kreditlarning qadrsizlanish modellari ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni oldindan ko'rish uchun ishlab chiqiladi. Ular ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar bilan bog'liq risklar, jumladan kredit riski, valyuta riski, foiz riski, operatsion risklar kabi, ular kutilgan va / yoki kutilmagan risklarni o'z ichiga oladigan darajada farqlanadi.

Kredit yo'qotishlarini hisobga olish usullari	Ko'rilgan zarar (BHXS -39)	Kutilayotgan kredit yo'qotilishi (MHXS-9)
	Ko'rilgan zararlar	Kutilayotgan zararlar
		Kutilayotgan kredit yo'qotishlari
		Kutilayotgan zararlar

7-rasm. Kreditlarni hisobga olish jarayonida BHXS-39 va MHXS-9 larda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni hisobga olish modellari²⁴

BHXS-39 va MHXS-9 modellari printsiptial jihatdan faqat kredit yo'qotishlarini tan oladi va shu bilan boshqa risk omillaridan (masalan likvidlilik) zararlarni istisno

²³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki www.cbu.uz sayti ma'lumoti asosida muallif hisob-kitobi

²⁴ Muallif tomonidan tuzildi

qiladi. Ular kutilayotgan yo‘qotishlar bilan cheklanadi va shu sababli ko‘zda tutilmagan kredit yo‘qotishlarini nazardan chetda qoldiradi.

Tijorat banklarida moliyaviy vositalar tarkibiga kiruvchi kreditlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda to‘g‘ri aks ettirish masalasi o‘z dolzarbligini xech qachon yo‘qotmaydi. Chunki, kreditlar bank aktivlari, ulardan olinadigan daromadlar, bank mahsulotlari tarkibida asosiy o‘rinni egallaydi va mijozlar tomonidan doimiy ravishda so‘raladi.

9-jadval

MHXSlarida moliyaviy vositalarning tasniflanishi²⁵

39-sonli MHXS (IAS) ²⁶	9-sonli MHXS (IFRS) ²⁷
So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan (<i>HTM</i> , « <i>Held to maturity</i> »)	Amortizatsiyalangan qiymat.
Kreditlar va debitor qarzdorlik (<i>LAR</i> , « <i>Loans and receivables</i> »)	Foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda baholanuvchi (FVTPL, « <i>Fair value through profit or loss</i> »)
Foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda baholanuvchi (FVTPL, « <i>Fair value through profit or loss</i> »)	Boshqa yapli daromad tarkibida haqqoniy qiymat bo‘yicha baholanuvchi qarz moliyaviy vositalar (FVTOCI, « <i>fair value through other comprehensive income</i> »).
Sotish uchun mavjud (<i>AFS</i> , « <i>Available For Sale</i> »)	

9-jadvaldan ko‘rinib turibdiki moliyaviy aktivlar 39-sonli MHXS da to‘rtta guruh bo‘yicha tasniflangan bo‘lsa, 9-sonli MHXSda uchta guruh bo‘yicha tasniflangan. 39-sonli MHXS da asosiy e‘tibor aktivning amal qilish muddati va maqsadga qaratilgan bo‘lsa 9-sonli MHXS da esa moliyaviy natijaga ta‘sir etishiga e‘tibor qaratilgan.

MHXS 9 standartiga o‘tish jarayonida tijorat banklari uchun eng muhim yangiliklardan biri - moliyaviy aktivlarni uchta asosiy toifaga tasniflash majburiyati hisoblanadi. Bu tasniflash kredit muassasalarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlarga muhim ta‘sir ko‘rsatadi.

8-rasmdan ko‘rinib turibdiki 9-sonli MHXS ga muvofiq, kreditni amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha tasniflash uchun 2 ta sinovdan o‘tkazish kerak:

1. Biznes modeli testi. Biznes modelning maqsadi shartnomada ko‘zda tutilgan pul oqimlarini to‘plash uchun moliyaviy aktivni ushlab turishdir (ya‘ni spekulyatsiya qilish uchun emas).


2. Pul oqimi xususiyatlarini tekshirish (SPPI testi, SPPI - solely the payments of principal and interest - faqat asosiy qarzni va foizlarni to‘lash).

Kreditlar 39-sonli MHXS da alohida tasniflangan bo‘lsa, 9-sonli MHXS da amortizatsiyalangan qiymat yoki foyda yoki zararlar tarkibida haqqoniy qiymatda baholanuvchi moliyaviy aktiv sifatida qaraladi. Bu holatlarni alohida ko‘rib chiqamiz.

²⁵ Muallif tomonidan tuzildi


²⁶ IAS 39 Financial Instruments: Recognition and Measurement <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ias-39-financial-instruments-recognition-and-measurement/>

²⁷ IFRS 9 Financial Instruments <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/>



8-rasm. 9-sonli MHXS bo'yicha kreditning tasniflanishi²⁸

Amortizatsiyalangan qiymat - bu moliyaviy aktiv yoki majburiyat bo'yicha shartnoma asosida kutilayotgan kelgusi pul oqimlarining, dastlabki (tan olingan) samarali foiz stavkasi asosida diskont qilingan qiymati, va moliyaviy aktiv holatida - zararlar uchun ehtimoliy zaxira chiqarib tashlanganidan keyingi summani anglatadi.



9-rasm. 9-sonli MHXS ga muvofiq kreditlarni tasniflash²⁹

Moliyaviy aktiv amortizatsiyalangan qiymatda baholanishi uchun quyidagi ikkala shart ham bir vaqtning o'zida bajarilishi lozim:

(a) Biznes model talabi: Moliyaviy aktiv shunday biznes model doirasida ushlab turiladiki uning asosiy maqsadi - shartnoma bo'yicha belgilangan pul oqimlarini (to'lovlarni) undirishdir. Bu holatda, bank aktivni sotish yoki boshqa aktivga almashtirish emas, balki undan foiz va asosiy qarz to'lovlarni olish maqsad qilgan bo'ladi.

(b) SPPI test (Solely Payments of Principal and Interest): Moliyaviy aktivning shartnomaviy shartlari shunga qaratilgan bo'lishi kerakki, u faqatgina asosiy summa

²⁸ Muallif tomonidan tuzildi

²⁹ Muallif tomonidan tuzildi

va ushbu summaga hisoblangan foiz to'lovlarini belgilangan sanalarda to'lashni nazarda tutishi lozim³⁰.

O'zbekiston Respublikasida ham tijorat banklari 9-sonli MHXS ni qo'llash bo'yicha ko'plab xalqaro tashkilotlar mutaxasislari bilan ishlar olib borib o'zlarining faoliyatini baholab ko'rdi. Eng muhim o'zgarishlardan biri aktivlarga zaxira yaratish nuqtai nazaridan sodir bo'ldi. 9-sonli MHXS joriy qilinsa, bank ko'rilgan zararni emas, balki ko'rilishi mumkin bo'lgan zararni hisobga oladi. Ushbu model aktivlarning amortizatsiyasining uch bosqichini ko'zda tutadi. Banklar aktivni tan olish paytida (1-bosqich) 12 oy ichida kutilayotgan yo'qotishlarni, kreditning sifati yomonlashgan taqdirda (2 va 3-bosqichlar), aktivning butun muddati davomida kutilayotgan yo'qotishlarni hisobga olishadi.

Kredit sifatini baholashda asosiy mezon sifatida qarz oluvchining 12 oy ichida yoki aktivning butun muddati davomida to'lov qobiliyatsizligi ehtimoli, shuningdek, defolt xolati, kutilganga nisbati asosida har xil reytingdan foydalanish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va boshqa mezonlardan foydalanishni qo'zda tutadi.

9-MHXS «Moliyaviy vositalar» ga asosan, «bank alohida-muhim kreditlarni bosqichlarga taqsimlashi shart». Har bir hisobot sanasida bo'lgani kabi, bank moliyaviy vositalar uchun kredit riskidagi o'zgarishlarning ahamiyatini dastlabki tan olingan kundan boshlab baholaydi va ularni kredit xavfi darajasiga qarab tegishli bosqichlarda tasniflaydi.

1-bosqich «Kredit riska past bo'lgan kreditlar» 9-sonli MHXSga muvofiq, dastlabki tan olinishda past kredit riskiga ega bo'lgan va kredit berilgan vaqtdan boshlab riski sezilarli darajada oshmagan kreditlarni o'z ichiga oladi. 1-bosqichga tasniflangan kreditlar, kutilgan zararlar, tan olinish sanasidan keyin yoki hisobot sanasidan keyingi 12 oylik kutilgan kredit zararlarini sifatida aniqlanadi, agar dastlabki tan olinishdan beri kredit riski sezilarli darajada oshmagan bo'lsa.

2-bosqich «Kredit riskida o'sish kuzatilgan kreditlar»da dastlabki tan olingandan boshlab kredit riskida sezilarli o'sish aniqlangan kreditni o'z ichiga oladi. Kredit riskining o'sishi har bir kredit uchun o'tish mezonlariga muvofiq alohida belgilanadi, lekin ular bilan cheklanmaydi.

3-bosqich «Qadrsizlangan kreditlar» bir yoki bir nechta qadrsizlanish hodisalari yuzaga kelgan kreditlarni tasniflaydi, bu kelajakdagi taxminiy pul oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

10-jadval

Qozog'iston, Belarus va O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit riski darajasiga qarab bosqichlarda tasniflash³¹

№	Ko'rsatkichlar	Qozog'iston Xalq banki AJ,		Alfa-bank AJ, Belarus		O'zSQB ATB		BRB ATB	
		mlrd. teng	ulushi, % da	mln. rubl	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
1	1-bosqich	11209,6	93,1	5055,6	92,1	46779,4	67,0	12517,2	49,0
2	2-bosqich	66,2	0,5	307,4	5,6	18906,9	27,1	7081,4	27,7
3	3-bosqich	763	6,3	126,3	2,3	4085,7	5,9	5969,7	23,3
4	Jami	12038,8	100,0	5489,3	100,0	69772	100,0	25568,3	100,0
5	Zaxira	573,2	4,8	113,7	2,1	3296,2	4,7	4735,5	18,5
6	Kreditlar-sof	11465,6	95,2	5375,6	97,9	66475,8	95,3	20832,8	81,5

³⁰ <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/#about>

³¹ Muallif ishlanmasi

Qozog‘iston, Belarus va O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kredit portfeli Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS 9) bo‘yicha kredit riskini bosqichlar bo‘yicha tasniflash natijalari banklarning aktivlar sifati va kredit riskini boshqarish darajasini ko‘rsatib beradi.

Kredit riskini bosqichlar bo‘yicha tasniflash banklar barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qozog‘iston va Belarus banklarining barqaror portfeli O‘zbekiston tijorat banklari uchun samarali tajriba sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, BRB ATB holati bank tizimidagi risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

kredit portfeli va kredit riski ichki auditda monitoring hamda stress-test o‘tkazish orqali b

o

‘ Tijorat bankining barqarorligini ta‘minlash va kredit riskini samarali boshqarish maqsadida stress-testni o‘tkazish muhim amaliy va strategik vosita hisoblanadi. Ichki auditorlar ham kredit riski va kredit portfeli auditida stress-testdan foydalangan holda o‘z xulosalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bank kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o‘tkazish bir necha bosqichlarda amalga oshirilishi lozim. Buni quyidagi rasmda ko‘rish mumkin.

Kredit portfeli va kredit riski stress-test obyektlarini aniqlash	•Kredit portfelida yuqori risk darajasi bo‘lgan, muammoli kreditlar salmog‘i yuqori bo‘lsan soha va tarmoqlar.
Bank riski omillarini belgilash	•Kreditlashning muhim sohalari bo‘yicha ularning bank barqarorligi va risk omillariga sezilarli ta‘siri o‘rganiladi.
Stsenariylarni shakllantirish	•Stsenariylar aniqlanadi, taxminlar parametrlari har bir stsenariy uchun tuziladi.
Kreditlashda stress-test obyektlariga xodisalarning oqibatlarini baxolash	•Har bir kreditlash obyekti uchun muammoli hodisalar natijalari tahlil qilinadi.
Stress-test natijasi ko‘rsatkichlarga ta‘siri tahlil qilish	•Stress-test natijalari tahlil qilinadi va ko‘rsatkichlarga ta‘siri baholanadi.
Kredit portfeli monitoringi va stress-test natijalar ta‘siri nazorati	•Kredit portfeli monitoring o‘tkaziladi, muammoli holatlarga tayyorgarlik baxolanadi, hisobotlar tayyorlanadi.
Stress-test natijalari asosida kreditlash jarayoni bo‘yicha qaror qabul qilish	•Kreditlash bilan bog‘liq risklarning yuzaga kelishini minimallashtirish, samarali chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

10-rasm. Bank kredit portfeli va kredit riskini stress-testdan o‘tkazish bosqichlari³²

Stress-test stsenariylari va stsenariy taxminlarga tayanib, bank muhim risklarga duchor bo‘lgan har bir stress-test obyekti uchun stress-test natijalarini baholash metodologiyasini belgilaydi. Jumladan, kredit riskini stress testlash modellari stress yo‘qotishlarni hisoblashga asoslangan.

³² Muallif tomonidan tuzildi

Ichki auditor kreditlashtirish operatsiyalarini stress-testdan o'tkazish vaqtida stress-test obyektlari va risk omillarini aniq belgilashlari lozim. Bunda Risk menejmenti departamenti tomonidan foydalanilayotgan uslubdan, uni tahlil qilgandan so'ng foydalanish maqsabga muvofiq.

11-jadval

Kreditlashtirish operatsiyalarida stress-test obyektlari va risk omillari³³

Ta'sirli risk	Kredit riski mavjud yo'nalishlar	Sinov obyekt	Tahdid manbai
Kredit riski	Yuridik va jismoniy shaxslarni kreditlashtirish	Yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar portfeli	Qarz oluvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlashishi
		Yaratilgan zaxiralar portfeli	Kreditlashtirishning sekinlashuvi
		Ta'minot portfeli	Qo'shimcha zaxiralar yaratish
	Kontragent banklar foydasiga mablag'larni joylashtirish	Kontregent banklarning hisobvaraqlaridagi mablag'lar	Garov qiymatini kamayishi (ko'chmas-mulk)
		Berilgan banklararo kreditlar	Kontregent banklarning litsenziyasini bekor qilinishi
			Kontragentlar moliyaviy ahvolidan yomonlashuvi

Ichki auditorlar kredit riski va kredit portfeli auditida bir yoki bir necha obyektlariga bir vaqtda yoki alohida stress-test ssenariylarining ssenariy tahlilini yoki sezuvchanlik tahlili turlarini qo'llash maqsadga muvofiq.

12-jadval

Kredit riski omillari va sezuvchanlik tahlilining indikativ parametrlari

Risk omillari	Me'yor	Kichkina stress	Stress	Katta stress	Inqiroz
Muammoli kreditlar ulushining o'tgan davrga nisbatan mutloq oshishi, foizda	1%	2%	3%	5%	10%
Muammoli kreditlarning zaxiralar hisobidan qoplanishi, foizda	100%	125%	150%	225%	300%

Bank, stress-test ssenariylari va ularga asoslangan ssenariy taxminlarini inobatga olgan holda, muhim risklarga duchor bo'lishi mumkin bo'lgan har bir stress-test obyekti uchun natijalarni baholashga mo'ljallangan aniq metodologiyani ishlab chiqadi va belgilaydi.

Stress test tahlili ehtimoliy uchta ssenariylarda ishlab chiqildi – normal, salbiy va ekstremal. Ayni paytda vaziyatni kuzatib, bank ko'rsatkichlari 1-ssenariyga muvofiq rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin, ammo bank mijozlarining faoliyati qiyin darajada tiklanishi 2- va 3-ssenariylardagi holatlarni yuzaga kelish ehtimoli mavjud.

O'tkazilgan stress-test natijalari kredit portfelining turli ssenariylardagi qaytarilish darajasini ko'rsatib berdi. Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, kreditlarning qaytarilish ko'rsatkichlari normal sharoitdan salbiy va ekstremal ssenariylarga o'tishda muntazam ravishda pasayib boradi. Bu esa banklarning kredit risklari iqtisodiy sharoit yomonlashgan taqdirda sezilarli darajada ortishini ilmiy asosda namoyon etadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, kredit portfelini shakllantirish va risklarni boshqarishda yuqori xavfli segmentlar (komunal, ta'minotsiz iste'mol kreditlari va boshqa kreditlar) bo'yicha qo'shimcha ehtiyot choralarini ishlab chiqish talab etiladi.

³³ Muallif tomonidan tuzildi

13-jadval**Kreditlarning qaytishi (recovered loans) ehtimoliy normal, salbiy va ekstremal ssenariyda stress test tahlili³⁴**

